

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**SHARIPOVA FARIDA SALIMDJANOVNA**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "TIBBIY BIOLOGIYA. UMUMIY  
GENETIKA" FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Guliston – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Sharipova Farida Salimdjanovna**

Oliy ta'lim muassasalarida Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish ..... 3

**Шарипова Фарид Салимджановна**

Совершенствование методики преподавания дисциплины Медицинская биология. Общая генетика в высших образовательных учреждениях .....23

**Sharipova Farida Salimdjanovna**

Improving the methodology of teaching "Medical biology. General genetics" in higher educational institutions..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 49

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**SHARIPOVA FARIDA SALIMDJANOVNA**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "TIBBIY BIOLOGIYA. UMUMIY  
GENETIKA" FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Guliston – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7197 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.guldu.uz](http://www.guldu.uz)) na "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Elmuratova Dilrabo Muxammadovna**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Raximov Atanazar Karimovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Usmonova Muxayyoxon Sobirjon qizi**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.91.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengashning 2024 yil «13» 12 kuni soat 14<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25, faks: (+99867) 225-39-25, e-mail: [gluinfo@edu.uz](mailto:gluinfo@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «29» 11 kuni tarqatildi.  
(2024 yil «29» 11 da 3-sonli reestr bayonnomasi)



**A.P.Pazilov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**F.P.Gaibnazarova**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

**E.B.Shakarboyev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanini o'qitishning raqamli ta'lim resurslari, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning innovatsion texnologiyalari amaliyotga tatbiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ta'lim sohasidagi innovatsion g'oyalarning tatbiq etilishi biologiya sohasida gen muhandisligi, nuklein kislotalarni o'rganish, bioinformatika va biotexnologiya yo'nalishlarida yer va suvosti resurslariga oid bilimlarni egallash, tirik organizmlarda uchraydigan kasalliklar biologiyasini o'rganish va davolash, biologik xilma-xilligini tadqiq etish, sohada biolog-mutaxassislarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash borasida yirik loyihalarni tatbiq etishda oliy ta'lim muassasalarida tibbiy va biologik fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida biologiya sohasida ta'lim strategiyalari va mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillariga takomillashtirish, biologiyaning yangi yo'nalishlari bo'lgan biotexnologiya, molekular klonlashtirish, kompyuter mikroskopiyasi, retrospektiv monitoring, nanotexnologiya sohalarida divergent fikrlovchi hamda kasbiy faoliyatini loyihalay oladigan, ijodkor mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish, interfaol ta'lim xizmatlarini sifatli amalga oshirish, pedagogik jarayonlar va ta'lim muhitini faol axborot almashinish jarayonlari bilan integratsiyalash masalalarining pedagogik-psixologik imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarining "Tibbiy biologiya Umumiy genetika" fani doirasida o'quv-metodik resurslari bazasini keng qamrovli innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish" ustuvor vazifa sifatida belgilandi<sup>1</sup>. Natijada, Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitish metodlari tizimida o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi, metodik ta'minoti, faoliyatga oid kompetensiyalar tizimi va siklik diagnostikasi mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 7-dekabrda PF-5590-son "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari, 2017-yil 20-aprelda PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси" фармони.

yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 12-avgustdagi 4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 5-maydagi PQ-2956 "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 7-apreldagi PQ-4666-son "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda mustaqil, mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, interfaol ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, kompyuter savodxonligini takomillashtirish masalalari A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, R.X.Djuraev, Fayzullayeva, D.N.Mamatov, N.A.Muslimov, K.B.Panjiev, O'.S.Xo'janazarov, J.G.Yo'ldoshevlar ishlarida o'z aksini topgan. Biologiya va uni o'qitish metodikasini innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari G.S.Ergasheva, S.S.Fayzullaev, M.A.Kuychiyeva, R.M.Madatov, A.K.Raximov, U.E.Raxmatov, J.O.Tolipova, G.A.Shaxmurova, M.T.Umaraliyeva, A.T.G'ofurovlar; "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fani va uni o'qitish metodikasi A.O.Daminov, K.N.Nishonboyev, P.X.Xoliqovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

MDH davlatlarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari va pedagogik-psixologik jihatlarini rivojlantirish masalalari I.A.Zimnyaya, M.I.Bulicheva, N.V.Babichev, Y.V.Beletskoy, T.V.Golikova, A.G.Kozlenko, V.M.Konstantinov, A.I.Nikishov, O.G.Petrova, I.N.Ponomareva, L.V.Pivovarovalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorij mamlakatlarda ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish masalalari, shuningdek, biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va ulardan oqilona foydalanish masalalari bo'yicha E.Kose, M.C.Kim, K.Namuddu, L.R.Newton, P.Nurse, A.B.Osin, M.Peat, F.Roisin, D.F.Slish, A.Sorgo kabi xorijlik olimlar tomonidan tadbiq etilgan.

Pedagog-metodistlar tomonidan o'qituvchilarning kasbiy-metodik kompetentligini takomillashtirish muammosi bilan bog'liq keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat

pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923121-raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha (2017-2020 yy.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o’qitishning didaktik va metodik ta’minotini ishlab chiqish;

oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o’qitish modeli, nazorat qilish va baholash mezonlarini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o’qitish samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obykti sifatida** oliy ta’lim muassasalari “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanlarini o’qitish metodikasini takomillashtirish jarayonlari bo‘lib, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialining 341 nafar respondent talabalari jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmeti** oliy ta’lim muassasalari “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari** tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, so‘rovnoma, test, tajriba-sinov, matematik modellashtirish, statistik va tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari tabiiy-ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga yo‘naltirilgani motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv mezonlar integrativ yaxlitligini ta’minlash, elektron muhitda faol axborot almashinish, loyihalash faoliyatiga yo‘naltirish hamda interfaol dasturiy vositalardan foydalanishning funksional komponentlarini faktik tasniflash asosida aniqlashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligi pedagogik jarayonning tashkiliy infratuzilmasini shakllantirish, ta’limiy-didaktik maqsadlarni bajarishga yo‘naltirilgan mantiqiy-tuzilmali, diagnostik-natijaviy ta’lim elementlarini o‘zlashtirish hamda ta’lim subyektlarining tashabbuskorlik sifatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirish modeli interfaol dasturiy vositalar, interfaol resurslar, multimedia mahsulotlari, virtual laboratoriyalar, krossvordlar, intellektual o‘yinlardan foydalanish davomiyligi va barqarorligini monitoring qilish hamda mantiqiy fikrlash, o‘ziga xos talabchanlik ko‘nikmalarini adaptiv uyg‘unlashtirish orqali takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligi tushuntirish-motivatsiyali, kognitiv,

texnologik, kreativlik hamda interfaol taqdimotlar, o'qitish motivatsiyasini didaktik loyihalash mazmuni ochib berish hamda Muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyihalash texnologiyalari ichki qonuniyatlarini auditiriyadan tashqari ishlar va mustaqil ta'limni tashkil etish jarayoniga proporsional optimallashtirish asosida takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan oliy o'quv yurtining pediatriya ishi – 60910300 yo'nalishi talabalari uchun "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" (sitologiya bo'limi) nomli o'quv qo'llanmasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27 martdagi 68-son buyrug'i asosida 68-566-sonli o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi) yaratilgan;

oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" nomli o'quv qo'llanma nashr qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29-maydagi 232-son buyrug'i asosida 232-905-sonli o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi);

oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv, uslub va nazariy materiallarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalari va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlari vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning fanga doir bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishdagi o'rni, axborot texnologiyalarining tashkiliy komponentlariga oid takliflari bakalavrlar uchun mo'ljallangan yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv dasturlarining mazmunini ishlab chiqish orqali aniqlashtirilgan;

o'qitish shakllari va texnologiyalari asoslanganligi, talabalarining kompetensiyasini rivojlantirish, virtual laboratoriya texnologiyalari negizidagi interfaol dasturiy vositalardan foydalanishga yo'naltirilgan o'qitish metodikasining mazmuni va texnologik asoslarining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini metodik ta'minotini takomillashtirishga doir "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" (sitologiya bo'limi) nomli o'quv qo'llanmasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27 martdagi 68-son buyrug'i asosida 68-566-sonli o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi) va "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" nomli o'quv qo'llanmasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29-maydagi 232-son buyrug'i asosida 232-905-sonli o'quv adabiyotining nashr



ruxsatnomasi) nashr etilganligi, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida pediatriya ishi – 60910300 – ta'lim yo'nalishi uchun “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fani bo'yicha namunaviy fan dasturlari va sillabuslari mazmuniga singdirilganligi hamda fanni o'qitish jarayoniga tadbiiq qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Oliy ta'lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

oliy ta'lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanidan tayanch va kasbiy kompetensiyalari motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv tarkibi elektron muhitda faol axborot almashinish, loyihalash faoliyatiga yo'naltirish hamda interfaol dasturiy vositalardan foydalanish komponentlarini funksiyalashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflari “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” nomli o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 2024-yil 9-martdagi 11-05-1095/04 sonli dalolatnomasi). Natijada, talabalarning kasbiy va axborot kompetentligi darajalarini shakllantirish, baholash, ma'lumotlarni tahlil etish imkonini bergan;

oliy ta'lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o'qitish metodikasi tashkiliy, maqsadga yo'naltirilgan, mantiqiy-tuzilmali, diagnostik-natijaviy mustaqil ta'lim elementlarini hamda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish metodlari takomillashtirishga doir takliflari “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 2024 yil 9 martdagi 11-05-1095/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, talabalarning kasbiy va axborot kompetentligi darajalarini shakllantirish, baholashni takomillashtirish imkonini bergan;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” haqida tushunchalarini rivojlantirishda fanni o'qitish metodikasi mazmuni interfaol dasturiy vositalar, interfaol resurslar, multimedia mahsulotlari, virtual laboratoriyalar, krossvordlar, intellektual o'yinlardan foydalanish imkoniyatlariga ko'ra takomillashtirishga doir takliflari “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” (sitologiya bo'limi) nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 2024-yil 9-martdagi 11-05-1095/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, talabalarning kasbiy va axborot kompetentligi darajalarini shakllantirish, baholash, ma'lumotlarni tahlil etish samaradorligi oshirilgan;

“Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini axborot texnologiyalari asosida o'qitishning rivojlantirish mezonlari tushuntirish-motivatsiyali, kognitiv, texnologik, kreativlik hamda interfaol taqdimotlar, o'qitish motivatsiyasini didaktik loyihalash mazmuniga doir takliflari “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 2024-yil 9-martdagi 11-05-1095/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, talabalarning kasbiy va axborot kompetentligi darajalarini shakllantirish, baholash, ma'lumotlarni tahlil etish samaradorligi oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy-uslubiy ish, shulardan 2 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 137 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitish metodikasining nazariy asoslari, oliy ta'lim muassasalarida Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitishning psixologik ahamiyati Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitish jarayonida ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari ilmiy tahliliy asosda yoritilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalari, interfaol metodlardan jadallik bilan foydalanish asnosida Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlari tahlili ta'lim tizimining barcha bosqichlari o'quv-tarbiya jarayonida elektron o'qitish vositalari rolining ortganligini ko'rsatmoqda. Ta'limni axborotlashtirish zamonaviy o'qitish vositalarining yangi yo'nalishi, ya'ni interfaol texnologiyalar va interfaol o'qitish vositalarini vujudga keltirdi.

Interfaollik (inglizcha interaction – o'zaro ta'sir) – obyektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xarakteri va darajasini yoritadigan tushuncha. Ko'proq informatika nazariyasi, informatika va dasturlash sohalarida, shuningdek, telekommunikatsiya, sotsiologiya, sanoat dizayni va boshqa tizimlarda qo'llanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayonining asosiy tizim elementlari orasida faol ilmiy-metodik almashishga erishish maqsadini ko'zlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish tizim (inson-foydalanuvchi) bilan hamkorlik qiladigan barcha elementlari hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish interfaol o'qitish tizimini funksiyalashtiriladigan,

foydalanuvchining kompyuter bilan hamkorlikdagi dialogli faoliyatini ta'minlovchi dasturli, apparat-dasturiy hamda texnik vosita va jihozlar hisoblanadi. Interfaol o'qitish vositalarining o'ziga xos xususiyati talabalarning o'quv materiali bilan muloqotga kirishishidan iborat bo'lib, talabalarning maxsus vazifalarini bajarishi sanaladi. Teskari aloqa talabaning o'zi tomonidan maslahatli ma'lumotlardan foydalanib, ish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni avtomatik tarzda tashxislash asosida bilimlarni to'g'rilashi va to'ldirishiga yo'naltirilgan.

Bizningcha, interfaollik talabalarning o'zaro harakat vositalar yordamida faol axborot almashishi, o'quv materiali bilan muloqotga kirishishini ta'minlaydi. Avtomatik tashxislash asosida teskari aloqaning amalga oshirilishi o'quv materialini o'zlashtirish va ta'lim jarayoni samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari orqali talabalarning tushunish imkoniyatiga ega bo'lishi, axborotni saqlash, yetkazish, izlash kabi jarayonlarni optimallashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratgan.

Xalqaro trening markazi (Merilend, AQSh) ma'lumotlariga ko'ra, interfaollik materialni o'zlashtirishni jadallashtiradi. Bu tadqiqot natijalari "O'qitish piramidasi" nomini olgan. Unda eng past o'zlashtirish ko'rsatkichlari an'anaviy metodikalarga (ma'ruza – 5%, o'qish – 10%) to'g'ri kelgan bo'lsa, interfaol metodikalarda (munozarali guruhlar – 50%, harakat orqali amaliyot – 75%, boshqalarni o'qitish yoki tezkor qo'llash – 90%) ancha yuqori bo'lgan.

Respublikamiz ta'lim tizimini axborotlashtirish maqsad va vazifalariga muvofiq oliy ta'lim muassasalarida Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish pedagogik texnologiyalardan foydalanish natijasida:

talabalarning Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanidan o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirish, takrorlash, topshiriqlarni bajarish imkoniyalari kengaytiriladi;

kelgusida talabalarning kasbiy faoliyatida samarali foydalanishi uchun interfaol dasturiy vositalar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga erishiladi;

Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanidan interfaol multimediali mashg'ulotlar va virtual laboratoriya mashg'ulotlari yordamida har qanday murakkab hodisa yoki jarayonni kuzatish, bajarish imkoni bo'lmagan tajribalarni ko'rsatish hamda talabalarga tushuntirish mumkin bo'ladi; nazorat qiluvchi interfaol metodlar yordamida teskari aloqani ta'minlash orqali ta'lim jarayonida nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki moliyaviy resurslarni iqtisod qilish, xavfsiz ekologik muhit yaratish imkoniyati yaratiladi;

Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanlaridan qiziqarli interfaol mashg'ulot va laboratoriya ishlarini uy sharoitida ham o'tkazish mumkin bo'ladi; virtual laboratoriya ishlarini ma'ruza vaqtida ma'ruza materiallariga qo'shimcha material sifatida ham namoyish etish imkoni vujudga keladi; talabalar bilimini nazorat qilishda interfaol QR-kod texnologiyasidan hamda kompyuterlashgan auditoriyalarda ular o'zlashtirishini interfaol testlar, sxemalar, rasmlar, topshiriqlar, krossvordlar orqali nazorat qilish imkoni yaratiladi;

web-quest, intellektual o'yin texnologiyalaridan turli tanlovlar o'tkazish.

O'tkazilgan psixologik-pedagogik va didaktik tadqiqotlarda (A.Hayitov, U.Begimqulov, M.Lutfillaev, N.Tayloqov) fanlarni o'qitish metodikasini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida amalga oshirish, aynan o'qitishni

individuallashtirish, ta'lim oluvchilar qobiliyati, imkoniyatlari va qiziqishiga moslashtirish, ularning mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirish, o'quv axborotlarining yangi manbalariga erishish, jarayon va obyektlarni kompyuter vositasida modellashtirishdan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi. Shunday qilib, yangi elektron ta'lim muhitini shakllantirish hamda uning komponentlarini takomillashtirish xususida so'z yuritish mumkin bo'ladi.

Elektron ta'lim muhitining maqsadli komponenti "hayot orqali o'qitish" strategiyasiga muvofiq global texnologik jarayon va mehnat bozorining o'zgaruvchan sharoitlariga moslashtirish prinsipiga monand bo'lishi zarur.

Mazmunli komponent "raqamli" avlodni axborot xulqining o'ziga xos kompetensiyasini shakllantirish jarayonida ta'lim oluvchilarning turli o'lchamlarda taqdim etilgan bilimlarni individual boshqarishni ta'minlashi lozim.

Refleksiv-baholash komponenti tarmoq muhitida amalga oshiriladigan individuallashtirilgan ta'lim amaliyoti o'quv jarayonida talabalarning faol pozitsiyasini tutish, bilimlarni mustaqil nazorat qilish, o'z-o'zini baholash orqali ta'minlanishi zarur. Ilg'or ta'lim amaliyotining ochiq tarmoqli axborot muhitida amalga oshiriladigan maqsadli, mazmunli, refleksiv-baholash komponentlari xususiyatlari texnologik komponentini amalga oshirishga o'ziga xos talablar qo'yadi.

Texnologik komponent tarmoq muhitining zamonaviy axborot texnologiyalari va faol pedagogik texnologiyalar asosida loyihalanaadi. Ular asosida talabalarning faol individual rivojlanishini ta'minlovchi qulay va funksional ta'lim muhiti shakllantiriladi. Bunday ta'lim amaliyoti talabalarning kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladigan uzluksiz ta'lim strategiyasining muhim elementi hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri talabalarning yangi axborot-texnologiya vositalaridan o'quv-bilish jarayonida samarali va ijodiy foydalanish imkoniyatini yuzaga keltirish, zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bilan uzviy holda talabalarning keyingi kasbiy faoliyatida biologiya o'quv-laboratoriya xonalarining moddiy-texnik bazasi, shu jumladan, kompyuter texnikasi, internet tizimi bilan mustaqil ishlay olishga tayyorlashdan iborat, biroq respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalarining barchasida ham moddiy-texnik baza talab darajasida emas, ba'zilarida esa, pedagogik kadrlarning salohiyati mavjud imkoniyatlardan foydalanish uchun yetarli emas.

O'tkazilgan pedagogik amaliyot davomida talabalar bilan "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish jarayonida muayyan mavzular bo'yicha interfaol taqdimotlar tayyorlash, internet saytlaridan ma'lumotlar qidirish, interfaol topshiriqlar tuzish, mashg'ulot ishlanmalarini loyihalashda yuzaga kelayotgan to'siqlar, shuningdek, elektron ta'lim muhitida o'qitishni boshqaruvchi tizimlardan amaliy faoliyatda foydalanish tajribasining yo'qligi maqsadga erishishni ta'minlashga to'sqinlik qilishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **Oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish metodikasi"** nomli ikkinchi bobida oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli, oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish

metodikasini takomillashtirish shart-sharoitlari, fanni o‘qitishda innovatsion ta’lim metodikasi yoritib berilgan. Unda oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o‘qitishda elektron nashrlar va resurslardan foydalanish imkoniyatlari, virtual laboratoriyalardan foydalanishning ahamiyati, “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanidan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda raqamli ta’lim texnologiyasidan foydalanish, elektron ta’lim muhitida o‘qitishni boshqaruvchi interfaol texnologiyalardan foydalanish, oliy ta’lim muassasalarida tibbiy biologiya umumiy genetika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning didaktik aspektlari bayon etilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning talabalarning bevosita dars o‘tish tasnifi va vazifalarini bilishini taqozo etadi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, interfaol dasturiy vositalardan ta’lim amaliyotida foydalanish mazmuni quyidagicha tavsiflanadi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Oliy ta’lim muassasalarida Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni

Oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishdagi maqsad			
Oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish amaliyotida samarali foydalanish mexanizmini ishlab chiqish		“Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o‘qitish jarayonining axborotlashgan tizimini yaratish, pedagogik texnologiyalar interfaol metodlar, asosida boshqarish tizimini tashkil yetish	
Oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishdagi vazifalari			
o‘quv jarayoniga tatbiq yetish uchun kerak bo‘lgan (moddiy-texnik baza) elektron ta’lim resurslari, didaktik aspektlarni yaratish	“Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o‘quv jarayoni uchun yangi axborotlashtirilgan pedagogik texnologiyalarning metodik ta’minotini yaratish va qo‘llash	talabalarda pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar bilan ishlash ko‘nikmalarini tarkib toptirish, ularning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish	“Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” ta’limi jarayonining samaradorligini oshirish hamda uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish

“Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanidan dars o‘tish metodikasini tasniflash asosida o‘quv va elektron nashrlar hamda dasturiy vositalar uchun umumiy qabul qilingan tasniflash qoidalari yotadi. O‘qituvchining axborot texnologiyalaridagi faoliyati quyidagicha: dars o‘tishga tayyorgarlik (o‘quv jarayoni grafigini tayyorlash, tashqi tahlil, yakuniy nazorat; auditoriyani mashg‘ulotga tayyorlash, dars davomida guruh va talabalar faolligini nazorat qilish; axborot texnologiyalar yordamida o‘qituvchi har bir talaba bilan individual aloqaga kirishadi, kompyuter yordamida

uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishni tashkil qiladi; axborot muhitini o'qitilayotgan fan mazmuniga ko'ra tanlab olish va hozirlash.


Ta'limini axborotlashtirish sharoitida virtual laboratoriyalarning o'rni beqiyos sanaladi. Mazkur bobda "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarining media materiallari (audio va video fayllari) va didaktik materiallar to'plami (elektron ko'rgazma materiallari va animasiyalari), fotogaleriyalari, nazorat dasturlari va dars mazmunini to'ldiruvchi qo'shimcha materiallarni yaratish, "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" ta'limi amaliyotida foydalanilayotgan turli axborot texnologiyalari bilan birga virtual laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi yoritib berilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning modeli ishlab chiqilgan. Modelda maqsad sifatida Oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish ko'rsatilib o'tilgan (1-rasmga qarang).

Konseptual blokda yondashuvlar, tamoyillar aks etgan. Mantiqiy yondashuvdagi bahsga o'ta mustahkam mantiqiy tahlil va dalil isbotlar xarakterli bo'lib, ularning natijasida ishtirokchilar yakuniy xulosalarga keladilar. Evristik yondashuvda tomonlardan biri muammoning yechimi bo'yicha o'zining yondashuvini qabul qilishga urinmasdan ishontirish metodi, ichki tuyg'u aqldan foydalangan holda bahs ishtirokchilarni o'zining nuqtai nazariga og'dirib oladi. Tanqidiy yondashuvda bahs ishtirokchilardan ba'zilari o'z raqibi fikridagi ijobiy taraflarini ko'rsatishga urinmaydi, muammoning yechimi bo'yicha o'z takliflarini bera olmaydi, ya'ni uning kamchiligini ko'rsatib, faqat tanqid ostiga oladi.

Asosiy didaktik tamoyillar masofaviy ta'lim jarayonida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishni tashkil qilish uchun nazariy baza hisoblanadi. O'quv materialining ilmiylik tamoyilida aynan fanda tasdiqlangan, dunyo-qarash va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni, tushunchalarni to'la qonli ilmiy bilishni kafolatlaydi. Shuningdek, bilimning u yoki bu elementini, yoki bilimlarni to'liq hajmda egallash uchun sarflanadigan vaqtni ham hisobga olish zarur. Masalan, masofaviy ta'limda ishtirok etuvchi ruhiy-jismoniy xususiyatga ega talabalarda mantiqiy tahlil qilish va sintezlash buzilishi kuzatiladi. Bunday buzilishlar o'rganilayotgan obyektning ikki o'lchamli (yassi) va bir xil tasvirda to'la baholay olmaydilar. Bu holda o'quv materialini elektron o'quv-metodik majmuasida har xil tasvirda (hajmiy statik tasvir, animatsiya, videofilm va b.) ifodalanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modelida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" o'qitish metodikasida o'qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllari belgilangan. Ularga dastur talablarini amalga oshiradigan o'qitishning asosiy shakli bo'lgan dars, unga bog'liq holda ekskursiyalar, uy ishlari, mustaqil ishlar va ixtiyoriy ravishda tashkil etiladigan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar kiradi. Mazkur o'qitish shakllari birgalikda "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish shakllari tizimini tashkil etishi bayon etilgan.



**1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli**


Model asosan quyidagi bloklardan tashkil topgan: konseptual blok (yondashuv va tamoyillar); mazmunli blok (oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish pedagogik jihatlari, o'qitish metodikasini takomillashtirish, shart-sharoitlar); jarayonli blok (o'qitish shakllari, pedagogik texnologiyalar, metodlar); metodik blok (pedagogik dasturiy vositalar, interfaol dasturiy vositalar); natijaviy blok (mezonlar)dan iborat.

Mazkur bobda darsni loyihalash, dars jarayonida foydalaniladigan pedagogik texnologiya, interfaol metodlardan foydalanish metodikasi takomillashtirilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning tashkiliy aspektlari "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish jarayoni uchun zarur bo'lgan texnik (interfaol) jihozlarni (elektron doska, proektor, telefon, planshet, plazmali panel, mobil ko'paytirish qurilmasi, test tizimlari, kichik axborot texnologiyalari vositalari) qamrab oladi.

Ma'lum bo'lishicha, oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishni o'quv-metodik majmua, darslik, ma'lumotnoma, trenajyor, topshiriq, laboratoriya ishlari tashkil etadi.

Shuningdek, bu bobda "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish amaliyotida qo'llanayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, qo'llaniladigan jihozlar mohiyati yoritilgan. Tadqiqot ishimizga doir bo'lgan "Tibbiy biologiya umumiy genetika" nomli o'quv qo'llanmamizda hujayra biologiyasi haqida kengroq yoritilgan bo'lib, quyidagi tartibda berilgan (2-rasmga qarang).




**2-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida Tibbiy biologiya Umumiy genetika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish chizmasi**

O'quv qo'llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi. Masalan, "Irsiy kasalliklarning kelib chiqish sabablari va oldini olish chora tadbirlari" mavzusi irsiy kasalliklarning turlari kelib chiqish sabablari, oldini olish profilaktikasini o'z ichiga qamrab oladi.

"Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitishda intellektual o'yinlarning Interfaol dasturiy vositalar asosida tashkil etilishi, uning sifati va samaradorligini baholash, talabalarning ma'lumotlar bilan tezkor va ijodiy ishlash imkoniyatini beradi. Tadqiqot mobaynida Interfaol dasturiy ta'minot asosida bir necha intellektual o'yinlar tashkil etildi. "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitishda foydalaniladigan intellektual o'yinlarning turlari asosan quyida keltirilgan (3-rasmga qarang).





### 3-rasm. Intellektual o'yinlarning turlari

“Tibbiy biologiya” interfaol dasturiy vositalar elektron majmuasidan foydalanib, intellektual o'yinlarni o'tkazish metodikasini bayon etilgan, “Tibbiy biologiya” interfaol dasturiy vositalar elektron majmuasining umumiy ko'rinishi (4-rasmga qarang.)



### 4-rasm. Tibbiy biologiya fanidan interfaol dasturiy vositalar elektron majmuasining umumiy ko'rinishi

